



O‘zbekistonda
diniy-ma’rifiy sohani
rivojlantirish:
**Surxondaryo
tajribasi**

Qurbonov Bekjon G‘ayrat o‘g‘li,
“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti
Gumanitar fanlar kafedrasini o‘qituvchisi

Annotatsiya:

Mazkur maqolada O‘zbekistonda diniy-ma’rifiy sohani rivojlantirish jarayonlari Surxondaryo viloyati misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda davlatning diniy siyosati, ma’naviy-ma’rifiy islohotlar, diniy ta’lim muassasalari faoliyati va ularning jamiyat barqarorligiga ta’siri o‘rganilgan. Shuningdek, hududda amalga oshirilayotgan tashabbuslar, xalqaro hamkorlik va diniy bag‘rikenglikni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar yoritiladi. Surxondaryo tajribasi diniy-ma’rifiy siyosatni takomillashtirishda muhim model sifatida baholanadi. Tadqiqot natijalari sohani yanada rivojlantirish bo‘yicha amaliy takliflarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar:

diniy-ma’rifiy siyosat, Surxondaryo, diniy bag‘rikenglik, islom, diniy ta’lim, davlat va din munosabatlari, ma’naviy islohotlar, radikalizmga qarshi kurash.



РАЗВИТИЕ РЕЛИГИОЗНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ СФЕРЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ОПЫТ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация:

В статье анализируются процессы развития религиозно-просветительской сферы в Узбекистане на примере Сурхандарьинской области. Рассматриваются государственная религиозная политика, духовно-просветительские реформы, деятельность религиозных образовательных учреждений и их влияние на общественную стабильность. Особое внимание уделено региональным инициативам, международному сотрудничеству и укреплению межконфессиональной толерантности. Опыт Сурхандарьи рассматривается как эффективная модель совершенствования религиозно-просветительской политики. Результаты исследования способствуют выработке практических рекомендаций по дальнейшему развитию данной сферы.

Ключевые слова:

религиозно-просветительская политика, Сурхандарья, религиозная толерантность, ислам, религиозное образование, государственно-конфессиональные отношения.

DEVELOPMENT OF THE RELIGIOUS AND EDUCATIONAL SPHERE IN UZBEKISTAN: THE EXPERIENCE OF THE SURKHANDARYA REGION

Abstract:

This article analyzes the development of the religious and educational sphere in Uzbekistan using the case of Surkhandarya region. The study examines state religious policy, spiritual and educational reforms, and the activities of religious educational institutions and their impact on social stability. Special attention is given to regional initiatives, international cooperation, and the promotion of interfaith tolerance. The experience of Surkhandarya is evaluated as an effective model for improving religious and educational policy. The findings provide practical recommendations for further development of this sector.

Key words:

religious and educational policy, Surkhandarya, religious tolerance, Islam, religious education, state–religion relations.

Kirish (Introduction).

O'zbekistonda din mamlakatdagi madaniy-ma'naviy an'analarning ajralmas qismi va aholi ma'naviy kamolotining asosi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda islom ma'rifatini tarqatish, ulug' alloma ajdodlarimiz ilmiy-ma'naviy merosini yanada chuqur o'rganish olib borilayotgan diniy-ma'rifiy sohadagi islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan sanaladi. Mamlakatda vijdon erkinligini ta'minlash, diniy bag'rikenglikni mustahkamlash va ajdodlar merosini o'rganish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda [1: 12]. "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi doirasida diniy-ma'rifiy sohani rivojlantirish jamiyat barqarorligini ta'minlashning muhim omili sifatida e'tirof etilgan [2: 45].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirishga qaratilgan muhim tashabbuslar va islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, diniy-ma'rifiy sohani yanada rivojlantirish, milliy-ma'naviy merosimiz

va qadriyatlarimizni yanada yuksaltirishga, yurtimizdan etishib chiqqan ulug' mutafakkir va allomalarning boy merosi, ularning jahon sivilizatsiyasi, ilm-fan taraqqiyoti rivojiga qo'shgan bebaho hissasini chuqur tadqiq etish va keng targ'ib qilish, yosh avlodni millatlar va dinlararo bag'rikenglik, o'zaro hurmat, tinch-totuv hayotni qadrlash va mustahkamlash ruhida tarbiyalash, xalqaro miqyosdagi ma'naviy-ma'rifiy muloqot va hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan farmon, qaror va farmoyishlar qabul qilinib, ijroga kiritildi.

Surxondaryo viloyati O'zbekistonning qadimiy ilmiy va diniy markazlaridan biri bo'lib, bu hudud Abu Iso Termiziy kabi buyuk allomalar vatani sifatida tanilgan [3: 21]. Hududda tashkil etilgan Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi diniy merosni o'rganish va uni xalqaro miqyosda targ'ib etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda [4: 7].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

(Literature review).

Davlat va din munosabatlari masalalari ko'plab xoriy va mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan. E.M. Tasar sovet davrida islomning institutsionallashuvi jarayonlarini chuqur tahlil qilib, davlat va diniy institutlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmlarini ochib bergan [5: 78]. M. Laruelle esa Markaziy Osiyoda islom va siyosat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni tadqiq etib, davlatning diniy sohadagi nazorat funksiyalarini yoritgan [6: 102].

T. Dadabaev o'z tadqiqotlarida post-sovet davrida diniy identitet va ijtimoiy xotira masalalarini tahlil qilgan bo'lsa [7: 66], mahalliy tadqiqotchilar mamlakatda amalga oshirilayotgan diniy-ma'rifiy islohotlarning amaliy jihatlari e'tibor qaratganlar [8: 34; 9: 56].

Tahlil va natijalar

(Analysis and Results).

Mamlakatimizda islom dini, movarounnahrlik ulug' alloma va mutafakkirlarning boy merosini o'rganish, tarixiy obidalarini asrab-avaylashga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston ko'p millatli, ko'p konfessiyali mamlakat. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Toshkentdagi Imom Moturidiy, Samarqanddagi Imom Buxoriy, Termiz shahridagi Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida amalga oshirilayotgan diniy-ma'rifiy sohadagi islohotlarning bunyodkor mohiyatini ochib berdi.

O'zbekistonning janubiy hududi hisoblangan Surxondaryo jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi bilan alohida mavqega ega. Ushbu o'lka o'zining buyuk allomalari, olimlari hamda mehnatkash xalqi bilan jahonga tanilgan. Ajdodlarimiz o'zlarining hayot tajribalarida munosib hurmatga sazovor bo'lgan shaxslarning nomlarini abadiylashtirishga, amalga oshirgan ishlarini kelajak avlodga namuna sifatida qoldirishga harakat qilgan. Munosib shaxslarning merosini va tarixini o'rganish, diniy-diyonatli insonlarning hayot tajribasini ommalashtirish,

ularning dunyoviy va diniy sohada amalga oshirgan ishlari yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadlariga xizmat qiladi.

O'zbekistonda diniy-ma'rifiy sohani rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar sohaning institutsional rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish to'g'risidagi PQ-2774-son qarori hududiy tajribaning shakllanishiga asos bo'ldi [3: 21]. Shuningdek, diniy-ma'rifiy soha faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan PQ-4436-son qarori mazkur yo'nalishdagi islohotlarni yanada kuchaytirdi [4: 9].

Qarorga muvofiq Islom dini rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk alloma, vatandoshimiz Abu Iso Termiziy (Imom Termiziy) va termiziy allomalarning benazir merosini ilmiy asosda chuqur o'rganish, muqaddas yurtimiz zamini azal-azaldan ulug' allomalar, aziz-avliyolar vatani bo'lib kelganini yurtdoshlarimiz va xalqaro jamoatchilik o'rtasida keng targ'ib qilish, milliy-diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va rivojlantirish, shu asosda yosh avlodni ezgu g'oyalar ruhida tarbiyalash, ularning qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini yanada kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita, O'zbekiston musulmonlari idorasi, Surxondaryo viloyati hokimligining Surxondaryo viloyatida O'zbekiston musulmonlari idorasi muassisligida Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi.

Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi chin ma'noda Surxondaryo ahliga ulkan ma'naviy tuhfa bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, bu yerdan **Termiziy nomi bilan islom olamiga mashhur bo'lgan yuzlab allomalar etishib chiqqan. Biroq Sovet davrida ularning hatto nomlari ham unutilish darajasiga etib kelgan.**

Markazning xalqaro maqomi – ajdodlarimiz merosining bugungi dunyo muammolarini echishda ishtirok etishi lozimligining amaliy ifodasi hamdir. Bugungi kunda Markaz ilmiy xodimlari tomonidan termiziy allomalar ijodiga oid o'ndan ortiq asarlarni tarjima qilib, nashr ettirdi hamda yurtimiz va xalqaro miqyosda ko'plab ilmiy maqolalar e'lon qilindi. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti bilan hamkorlikda Markaz xodimlari termiziyilar merosining jahonning 44 mamlakati kutubxona fondlarida saqlanayotgan 1400 dan ziyod qo'lyozmalarini aniqlashda ishtirok etgani va "Termizlik allomalar asarlarining qo'lyozmalari katalogi", "Termizlik olimlar asarlarining jahon fondlaridagi qo'lyozmalari katalogi" kitoblarining nashr etilishida hamkorlik qilgani Markazning tarixiy yutuqlaridan biri sifatida baholash mumkin. Va yana Imom Termiziy, Hakim Termiziy va termizlik boshqa olimlarning 20 dan ortiq asarlari o'zbek tiliga tarjima qilindi. Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan jahonning ko'plab mamlakatlarida saqlanayotgan qo'lyozmalarni aniqlash va nashr etish ishlari amalga oshirilmoqda. Bu jarayon O'zbekistonning xalqaro ilmiy nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda [3: 25].

Surxondaryo viloyatida diniy ta'lim tizimini rivo-

jlantirish maqsadida Imom Termiziy nomidagi oʻrta maxsus islom bilim yurti faoliyati yoʻlga qoʻyildi. Ushbu muassasa diniy mutaxassislarini tayyorlash va yoshlar oʻrtasida sogʻlom diniy qarashlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda [10: 87]. 2019-yil 14-yanvarda diniy soha xodimlari, oliy, oʻrta maxsus, umumiy oʻrta taʼlim muassasalarining pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ajdodlarimizning islom va jahon sivilizatsiyasiga qoʻshgan boy diniy-ilmiy merosini keng targʻib qilish, diniy-maʼrifiy hayotdagi yangiliklarni jamoatchilikka etkazish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi huzurida Malaka oshirish markazi va uning bir nechta filiallari, xususan, Surxondaryo mintaqaviy filiali ham tashkil etildi. Malaka oshirish markazi va uning mintaqaviy filiallarida imom-xatiblar, imom noiblari, diniy soha mutaxassislari, davlat va jamoat tashkilotlari xodimlari, oliy va oʻrta taʼlim muassasalarining sohaga tegishli pedagog kadrlari qayta tayyorgarlikdan oʻtadi va malaka oshiradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 17–18-oktyabr kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi davomida bergan topshiriqlari ijrosi yuzasidan Termiz shahrida “Imom Termiziy” oʻrta maxsus islom bilim yurti tashkil etildi. Taʼlim muassasasi 2020-yil 8-iyun kuni 24-son bilan Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan davlat roʻyxatidan oʻtkazildi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, diniy savodxonlikning oshishi ekstremizm va radikalizmning oldini olishda muhim omil hisoblanadi [6: 118].

Xulosa va takliflar

(Conclusion/Recommendations).

adqiqot natijalari Surxondaryo viloyati Oʻzbekistonda diniy-maʼrifiy sohani rivojlantirishning samarali modeli ekanligini koʻrsatdi. Hududda amalga oshirilayotgan islohotlar diniy bagʻrikenglikni mustahkamlash, yoshlarni maʼnaviy tarbiyalash va jamiyat barqarorligini taʼminlashga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati (References)

Yangi Oʻzbekistonda barqaror rivojlantirish, tinchlik va islom maʼrifatining xalqaro eʼtirofi. – Toshkent: Oʻzbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, 2025.

Mirziyoyev, Sh. M. Erkin va farovon, demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2016.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-fevraldagi PQ-2774-son qarori.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-sentyabrdagi PQ-4436-son qarori.

Tasar, E. M. Soviet and Muslim: The Institutionalization of Islam in Central Asia, 1943–1991. Harvard University, 2010.

Laruelle, M. (Ed.). Being Muslim in Central Asia: Practices, Politics and Identities. Leiden: Brill, 2018.

Dadabaev, T. Identity and Memory in Post-Soviet Central Asia. London: Routledge, 2016.

Masharipova, G. K. Dinshunoslik. – Toshkent: Navroʻz, 2020.

Tulemetova, G. T., & Hasanbayev, O. M. Dinshunoslik. – Toshkent, 2021.

Khudoyberdiyev, U. T., & Toshov, K. T. Dinshunoslik. – Termiz, 2024.

